

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**ALISHER NAVOIY ADABIY VA
ILMIY MEROSINI O‘RGANISH
MASALALARI**

№ 67

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2022-yil 8-fevral

**“Adast poligraf”
TOSHKENT -2022**

Navoiyshunoslik masalalari

Maqsud Asadov (O'zbekiston). Barhayot navoiyshunoslar.....	370
Zebo Qobilova, Sug'diyona Ergasheva (O'zbekiston). Oriflik maslagi.....	376
Umed Karayev (O'zbekiston). Ayniyning navoiyshunoslik maktabi.....	380
Elmurod Nasrullayev (O'zbekiston). Navoiy tasavvufiy qarashlari Najmiddin Komilov talqinida.....	385
Mohigul Mavlonova (O'zbekiston). "Farhod va Shirin" dostoni Fitrat va Hamid Olimjon talqinida.....	390
Fayzullo Yaxyoyev (O'zbekiston). To'xtasin Jalolov ilmiy maqolalarida navoiyshunoslikka oid qarashlar.....	396
Guldasta O'ngalova (O'zbekiston). Navoiyning lirik asarlariga Rossiyada munosabat (N.Ivanov misolida).....	401

Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi

San'atjon Sariyev (O'zbekiston). Farhod obrazining yangicha xalqona talqini	407
Ma'rifat Rajabova (O'zbekiston). Alisher Navoiy ijodida mifologik jang motivi.....	412
Venera Ataxanova (O'zbekiston). Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti	417
Yulduz Abdulhakimova (O'zbekiston). Navoiy va Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlarida xalq badiiy tafakkurining poetik sintezi	422
Fotima Erkinova (O'zbekiston). Xalq og'zaki ijodida Alisher Navoiy timsoli.....	427

Alisher Navoiy va zamonaviy adabiyot

Suvon Meli (O'zbekiston). Alisher Navoiyning ishq konsepsiyasi va "Romeo va Julietta".....	433
Shoira Axmedova (O'zbekiston). Esseda Alisher Navoiy obrazi talqini.....	438
Dilrabo Quvvatova, Aziza Ikromova. (O'zbekiston) Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" she'riy dramasida Alisher Navoiy obrazi talqini....	443
Ergash Ochilov (O'zbekiston). Jamol Kamol ijodida Alisher Navoiyning o'rni.....	447
Gulbahor Ashurova (O'zbekiston). Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani haqida.....	456

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xamsa, Toshkent: "Fan", 1967.

**NAVOIY VA FUZULIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONLARIDA
XALQ BADIY TAFAKKURINING POETIK SINTEZI**

**Yulduz ABDULHAKIMOVA,
ToshDO'TAU doktoranti**

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlarida xalq og'zaki ijodining o'rni masalasi tadqiq qilingan. "Layli va Majnun" dostonining bosh qahramoni Majnun obrazi, "Alpomish" dostonining bosh qahramoni Hakimbek (Alpomish) obrazi bilan qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'z: Doston, obraz, qiyos, motiv, Alpomish, hikoyat.

Аннотация

В статье исследуется роль фольклора в эпосе «Лейли и Меджнун» Алишера Навои и Мухаммада Физули. Образ Меджнуна, главного героя эпоса «Лейли и Меджнун», сопоставляется с образом Хакимбека (Алпомыш), главного героя эпоса «Алпомыш».

Ключевые слова: Эпос, образ, сравнение, мотив, Алпомыш, рассказ.

Annotation

The article deals with the role of folklore in the epics "Layli and Majnun" by Alisher Navoi and Muhammad Fuzuli. The image of Majnun, the folk hero of the epic Layli and Majnun, is compared with the image of Hakimbek (Alpomish), the protagonist of the epic Alpomish.

Key words: Epic, image, comparison, motif, Alpomish, story.

dostonining bosh qahramoni Majnunning taqdiridagi o'xshash tomonlarni qiyosini keltirib o'tamiz.

“Alpomish” va “Go'ro'g'li” turkum dostonlarida qahramon – alpning tug'ilishi ilohiy xususiyat kasb etadi. Ilohiy tug'ilish folklordagi yetakchi motivlardan biri bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi, alp – qahramonning tug'ilishidan oldin ota-onasining farzandsizlik holati. Bu holat, eng avvalo, ramziy ma'noga ega. Bu, bir tomondan, ona urug'chiligi bilan bog'liq tasavvurlarning doston qatlamida saqlanib qolganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, hokimiyatni mustahkamlaydigan, parokanda elni yana qayta birlashtiradigan yangi avlod – yangi qahramonning tug'ilishini anglatadi. Ikkinchisi, qahramon tug'ilishi tushda ilohiy karomat qilinishi. Uchinchisi, qahramon tug'ilgandayoq uning zimmasiga yuklatilgan vazifa, ya'ni o'tashi shart bo'lgan sinovlarning oldindan belgilab qo'yilishi” [2.35].

Dostonlar voqeasi, insonning tug'ilishini turli xil narsa-buyum, o'simlik va hayvonlar bilan bog'lashliklari, dostonlar bir necha ming yillar avval ya'ni islom dini paydo bo'lishidan avval yaratilganidan dalolat beradi.

“...Hakimbek, Qaldirg'och, Barchinoyning tug'ilishidagi ilohiy homiylik belgilarini eslang. Yoy, o'q, tush, qo'riq kabilar jonsiz narsa-predmetlarning homiyliги belgilari, ot, g'oz kabi hayvonlar totemizm tushunchalari ekani “Alpomish”ning juda qadimiy asar ekanini tasdiqlaydi” [3.189].

“Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il farzand paydo bo'ldi: kattarog'ining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari – ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri Shoy (shoh) edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo'ldi [5.14].

Ba'zi bir olimlar Alisher Navoiy “Alpomish” dostonidan xabarsiz bo'lgan deyishadi. Navoiyning o'zi ham aynan “Alpomish” dostoni haqida biror yerda tilga olmagan bo'lsa-da, “Layli va Majnun” tarkibida xalq og'zaki ijodi an'analariidan unumli foydalanadi. Masalan, Majnunning tug'ilish motiviga ham aynan xalq dostonlari asos bo'lgan bo'lishi mumkin:

*Kim, barri Arabda komrone,
Bor erdi Arabqa hukmrone.
...Otu tevasi hisob ila jo'p,
Qo'yu qo'zisi hisobdin ko'p.
...Moli ko'pu, umri sustpayvand,
Farzandg'a erdi orzumand.*

Mazmuni: Arab yerida badavlat kishi bo'lib, u Arabistonga hukmronlik qilardi. U bilimni kasb qilib, sahovatni hunar qilib olgandi. Bilim bilan sahovat ko'rsatardi. Ot, tuya, qo'y-qo'zilari son-sanoqsiz edi. Umr quyoshi botar ekan, uning o'rniga yana yorug' quyosh-farzand kerak (*Layli va Majnun. Nasriy bayonni to'ldirib, qayta nashrga tayyorlovchilar: V. Rahmonov, N.Norqulov*).

Fuzuliy esa quyidagicha keltiradi:

*Omvalim cəmi-cinsdən çox,
Əmma bu cəhanda varisi yox.
Gər qilsa onu tələf həvadis,
Yox bir xələfi ki, varis.
...Bir gecə açıldı bəbi-rəhmət,
Buldu əsəri-dua icabət.
Məqsud şəm'i münəvvər oldu,
Sənduqi-əməl dūr ilə doldu.*

Mazmuni: U kishining mol-davlati bor edi-yu ammo, farzandsiz edi. Bir kecha uning qilgan duolari ijobat bo'ldi. Maqsad sha'mi munavvar bo'lib, amal sandig'i dur bilan to'ldi.

Hakimbek ham Qays ham nafaqt ota-onasining ko'z nuri, balki o'zi tug'ilgan xalqning dardiga darmon bo'lish uchun (Alpomish), Bir bandaning Allohga bo'lgan nihoyatda kuchli muhabbatining namunasi sifatida (Majnun Laylining timsolida Haqning tajjallisini ko'radi) Alloh tomonidan tanlangan edi.

Qahramonlarning ismlarini o'zgarishi ham ahamiyatlidir. Ular voyaga yetgach, ilmda ham, hunarda ham o'z zamonasining yagonasi bo'lib (Majnun), Ne-ne alplarga nasib qilmagan qahramonliklar ko'rsatib (Alpomish) xalq tomonidan "Alpomish" va "Majnun" deb nom oldilar:

"Alpomish" dostonidan:

"...Shunda Hakimbek yeti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o'n tort botmon yoyni qo'liga ushlab, yeti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyni o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozi olamga ketdi. Buni eshitgan dushmanlar: "Bu bola zo'r bo'пти, nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo'lolmaydi yeti yashar bola shunday ishni qilami?" deb xafa bo'lib yotdi. Do'stlarning vaqti xush bo'lib yurdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: "Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi, alplarning

“Layli va Majnun” dostonidan:

“Layli, Layli” debon chekib un,

El deb: “Majnundur, ushbu Majnun”.

Fuzuliy boblar soʻngida kelgan gʻazal, murabbaʼ, tamamiyi-soʻxan kabi bir qancha janrlarni ham keltiradiki, bu boblar mazmunini yanada ochishga xizmat qiladi.

Fuzuliy Majnunning tugʻilishini qisqa tasvirlaydi. Ammo Majnunning ruhiy holatini bayoniga koʻproq toʻxtaladi:

Söz müxtəsər: ol əsiri-sevda

Bir növ ilə oldu xəlqə rüsva.

Kim, Qeys ikən, oldu adı Məcmun.

Əhvalını etdi qəm digərgun.

Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostoni Majnun ruhiyatidagi chaqinlar, jismidagi titroqlar, zuvalasidagi oʻt va olovga bagʻishlangandir. U oʻt shunday oʻtki, nafsning har bir tolasini qisrlatib chaynaydi. U shunday olovki, taftidan jismda harorat oshib, aql va tafakkur toblanadi, kuyib-kuyib chiqindilardan tozalangan qalb Haqning yodi bilan jilvalanadi. Oshiqlik aqlu-hushdan begonalikdir. Ijodkorlar Majnun ruhiyatida kechayotgan qiynoqlar, ogʻriqlarni shu qadar kuchli boʻyoqlar yordamida chizadiki, baʼzan tushunishga aql shoshib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy xalq ogʻzaki ijodidan, xalq dostonlaridan nafaqat xabardor boʻlishgan, balki oʻz asarlarida ulardagi motivlar, tasvirlar, voqealardan foydalanishgan ham. Bu esa ular yaratgan asarlarni xalqchil boʻlishi uchun zamin yaratgan boʻlsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti.-T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,1974.

2. Eshonqulov J. Tushning boshqa motivlar bilan qiyosiy tahlili. -T.: Saviya.uz, 2017.

3. Madayev O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi.-T.: “Mumtoz soʻz”, 2013.

4. Navoiy A. Layli va Majnun. - T.: Gʻofur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

5. Alpomish. -T.: SHARQ, 1998

6. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. -T.: Tamaddun, 2018

7. Komilov N. Xizr chashmasi. Ishq otashining samandari. -T.: Maʼnaviyat, 2005

8. Gʻafurov I. Oʻttiz yil izhori. Ishq shiddatining pogʻonalari.-T.: Gʻofur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,1987